

JOURNAL OF NATURAL SCIENCE

Nº 2 (7) 2022

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЬАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош мухаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p>	<p>1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц. 2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН) 3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА 4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya 5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор 6. Абдурахмонов Э.А.–СамДУ к.ф.д., профессор 7. Насимов А.М.–СамДУ к.ф.д., профессор 8. Сманова З.А.-ЎзМУ к.ф.д., профессор 9. Тошев А.Ю.- ТТЕСИ к.ф.д, доцент 10. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц 11. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б. 12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф 13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц. 14. Абдурахмонов F- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц. 16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц 17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. 18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD) 19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц 20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD) 21. Раширова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 22. Муминова Н- ЖДПИ к.ф.н., доц 23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц 24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)</p>
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти Журнал 4 марта чикарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www/natscience.jspi.uz](http://www/natscience.jspi.uz)

AROMATIK UGLEVODORODLARNI GALOGENLASH

Qarshiyev Egamqul Boltayevich-dotsent

Muyassarova Kumush-magistr

Jizzax davlat pedagogika instituti

islomqarshiev002@gmail.com

Annotatsiya. Galogenarenlar arenlarni to'g'ridan to‘g‘ri galogenlash, yoki boshqa guruhlarni galogenga almashtirish yo'li o’rganilgan.

Аннотация. Галогенарены были изучены для прямого галогенирования аренов или для превращения других групп в галогены.

Abstract. Halogenarenes have been studied for direct halogenation of arenas, or for the conversion of other groups to halogens.

Kalit so’zlar: Galogenaren, aromatik, benzol, aren , funksional, reagent.

Galogenarenlar arenlarni to'g'ridan to‘g‘ri galogenlash, yoki boshqa guruhlarni galogenga almashtirish yo'li bilan olinadi. To'g'ridan to‘g‘ri galogenlash galogenarenlar olishning asosiy metodi (ftorarenlardan tashqari) hisoblanadi.¹ Benzol va uning gomologlarini xlplash, bromlash, yodlash reaksiyalari juda batafsil o’rganilgan. Aromatik birikmalarni xlplash reaksiyasi sanoat ahamiyatiga ega bo'lsa, bromlash laboratoriya amaliy mashg'ulotlarida keng qo'laniadi. Aromatik birikmalarni yodlash Maxsus sharoitni talab etadi. Yod arenlar bilan to'g'ridan-to‘g‘ri reaksiyaga kirishmaydi, faqat zaryad ko'chgan kuchsiz kompleks - Lar hosil qiladi. Buning sababi, yod atomining elektronga botgan moyilligi brom va xlorga nisbatan kamdir. Aromatik birikmalarni yodlash oksidlovchilar (HIO_3 , $\text{HN}_3 + + \text{H}_2\text{SO}_4$, N_2O_2 , HJO) ishtirokida olib boriladi. Oksidlovchilar yodni kuchli elektrofil reagent-yod kationiga J aylantirib beradi:

Agar, benzol halqasidagi vodorodlardan biri, biror-bir funksional guruh bilan almashgan bo'lsa, keyingi ta'sir etayotgan reagentning qaysi vodorod bilan almashinishi uch xil omilga bog'liq bo'ladi:²

1 .0’rinbosaming tabiatiga.

2 Ta’sir etayotgan reagentning tabiatiga.

Reaksiya sharoitiga.

O’rinbosarlarning yo’naltiruvchi tasiri. I quruhaning o’rinbosarlari:

¹ ДЖ. Роберто, М. Касерио Издательство . Мир . Москва 1968.

² Sobirov-“Organik kimyo”, Toshkent , “O’zbekiston” nashiryoti, 1999-yil

Bu guruhga musbat induksion ta’sir (+J) ko’rsatuvchi guruhlar kiradi. Bular afkil (R) guruhlardir. Benzol halqasida alkil guruh bo’lgan vaqtida yadrodagи holatlarning reaksiyon qobiliyati quyidagi tartibda kamayib boradi: 0- > m- > p- bunga sabab alkil guruh, masalan, metil (CH_3) benzol yadrosi tomon elektronlarni siljитib yadrodagи elektron zichlikni oshiradi. Bu ta’sir masofa uzoqlashgan sari kamayib boradi, natijada elektron zichlik ham yuqoridagi tartibda kamayib boradi. Elektrofil reagentning hujum qilish ehtimolligi ham shu qatorda kamayib boradi:



II guruh o’rinbosarlari: Bu guruhga manfiy induksion ta’sir (-J) beruvchi o’rinbosarlar kiradi. Ular quyidagi o’rinbosarlardir:

- CH_2Hal , - chhal_2 , - chal_3 , - CH_2OH , - CH_2OR , - CH_2NH_2 ,
- CH_2NHR , - CH_2NR_2 , - $\text{CH}_2\text{-NR}_3^+$, - NR_3^+

Bu guruhlar benzol halqasida bo’lganda yadrodagи umumiyl elektron zichlikni kamaytiradi. Bu ta’sir, ayniqsa, o-holatda sezilarli darajada bo’ladi. Yadrodagi vodorodlarning elektrofil reagentlar ta’sirida almashinishidagi reaksiyon qobiliyati quyidagi qatorda ortib boradi: o- < m- < p-. Ya’ni bunday guruhlar ta’siri ostida bo’lgan yadrodagи almashinish ko’proq p-holatda sodir bo’ladi.

II guruh o’rinbosarlarining I guruh o’rinbosarlaridan farq qiluvchi xususiyatlaridan biri shuki, ular mavjud bo’lgan yadroda m-holatida ham ancha miqdorda almashinish sodir bo’ladi.

III guruh o’rinbosarlari:

Bu guruhga manfiy induksion (-J) va manfiy mezomer (-m) ta’sir ko’rsatuvchi o’rinbosarlar kiradi. Ular quyidagilardir:

- NO_2 , - COOH , - COOR , - CHO , - CRO , - CN , - SO_2R ,
- SO_2OR , - SO_3H , - $\text{CH}=\text{CH}_2$, - $\text{C}^{\wedge}\text{CH}$, - $\text{CR}=\text{NR}$

Bu guruh o’rinbosarlar yadrodagи elektron zichlikni keskin kamaytiradi, shuning uchun uning reaksiyon qobiliyati ham pasayadi. Yadroning o- va p- holatlarida o’rinbosarning manfiy mezomer ta’siri tufayli elektron zichlik m- holatga nisbatan ko’proq kamayadi. m-holatda o’rinbosarning faqat manfiy induksion ta’siri kuzatiladi. Shuning uchun bu guruh o’rinbosarlari benzol halqasida bo’lganda elektrofil almashinish m-holatda sodir bo’ladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, benzol halqasida bitta, ayniqsa, ikkita bu guruhdagi o’rinbosar mavjud bo’lsa, yadrodagи elektronlar zichligi shunday kamayib ketadiki, natijada unga nisbatan o-va p-holatlarda nukleofil almashinishreaksiyasiga imkoniyat tug’iladi. Haqiqattan ham, m-dinitrobenzol, 2,4- dinitroxlorbenzol molekulalarining yadrosida vodorod yoki xlorning nukleofil almashinishi sodir bo’ladi.³

IV guruh o’rinbosarlari:

³ Rudzitis G. E, Feldman F. G- kimyo – 11 “ Organik kimyo o’rtalama tababining 11- sinf uchun darslik”, Toshkent “O’qituvchi”- 1998 – yil

Bu guruhga manfiy induksion (-J) va musbat mezomer ta’sir ko’rsatuvchi o’rnbosarlar kiradi, bunda guruhlarning manfiy induksion ta’siri (-J) uning musbat mezomer ta’siridan (+M) kuchliroq bo’ladi, ya’ni $-J > +M$. Ular ham benzol halqasidagi umumiy elektron zichlikni kamaytiradi. O’rnbosarning musbat mezomer ta’siri tufayii o- va p-holatlarga bo’lgan ta’sir kamayadi va shuning uchun elektrofil almashinish o- va p-holatlarda sodir bo’ladi. Bunday guruhlarga galogenlar kiradi: -F, -Cl, -Br, -J.

Shuni aytish kerakki, bu guruhlar ta’siri ostida almashinish o- va p-holatlarda sodir bo’lsa ham, galogenbenzollar benzolning o’ziga nisbatan ham elektrofil almashinish reaksiyalariga qiyin kirishadi. Demak, galogen atomlari elektrofil almashinishni qiyinlashtirsa ham, almashinish o- va p-holatlarda sodir bo’ladi.

V guruh o’rnbosarlari:

Bu guruhga ham IV guruh o’rnbosarlari xossasiga ega bo’lgan o’rnbosarlar kiradi, ya’ni ular ham manfiy induksion (-J) va musbat mezomer (+M) ta’sir ko’rsatuvchi o’rnbosarlardir. Bu ikki guruh o’rnbosarlari ta’sirlarining farqi shundaki, V guruh o’rnbosarlarida musbat mezomer ta’sir (+M) ularning manfiy induksion (-J) ta’siridan kuchli bo’ladi, ya’ni $+M > -J$.

Ularga quyidagi guruhlar kiradi:

—OH, —OR, —NH₂, —NHR, —NR₂

Ular o’zlarining musbat mezomer ta’sirlari bilan o- va p-holatlardagi elektron zichlikni keskin oshirib yuboradi va almashinish o- va p-holatlarda sodir bo’ladi.

Arenlarni galogenlash.

Benzol va uning gamaloglari hamda bashqa aromatik uglavodorodlarni galogenlashda malum bir qoidalarga amal qilinadi. Benzol gamaloglariga gaiogen o’rnbosarlarning yo’nalyiruvchi tasiri qoidasiga muofiq boradi,⁴ Benzolda o’rnbosar yo’qligi sababli gamaloglariga nisbatan o’zgacha tartibda galogenlanadi.


Galogenlarning arenlar bilan reaksiyaga kirish qobiliyati quyidagi qator bo’yicha kamaydia:

$F_2 > Cl_2 > Br_2 > J_2$


Arenlami galogenlash uchun Luis kislotalardan — FeCl₃, FeBr₃, ZnCl₂, AlS₁₃, ayrim faollashtiruvchi reagentlardan — J₂, Ag⁺C_{104~}, hamda qutbli erituvchilardan — dioksan, suv, sirka kislota va nitrobirikmalardan foydalanish mumkin. Katalizatorlarning faolligi quyidagi qator bo’yicha kamayib boradi:

⁴ O.Ya. Neyland “Органическая химия” Москва изд- <Высшая школа> 1988- yil

Benzolga temir-(III)-xlorid katalizatori ishtirokida xlor yoki brom bilan ta’sir yetilganda benzoldagi vodorodlar ketma-ket galogen atomiga almashina boradi. Almashinish yo‘naltirish qoidasiga muvofiq boradi.




Ultrabinafsha nur ta’sirida benzol molekula xlor yoki bromni biriktirib olib, geksagalogen benzolni hosil qiladi. Geksagalogen benzol qizdirilganda simmetrik trigalogenbenzolga aylanadi:



Fenol yesa juda oson va juda tez reaksiyaga kirishib, bira to‘la 3 ta vodorodini ham bromga almashtiradi va 2,4,6-tribromfenol hosil qiladi.

Uchta vodorodning bunday osonlik bilan almashinishi toluolda ham, xlorbenzolda ham kuzatilmaydi. Gidroksil guruhining ta’siri shunchalik kuchliki, yuqoridagi reaksiya salisil kislotasi bilan o’tkazilganda ham 2,4,6- tribromfenol hosil bo‘ladi, karboksil guruh yesa siqib chiqariladi. Uchlamchi-butilbenzol yod ishtirokida bromlanadi:



Bunda uchlamchi-butil guruhining fazoviy ta’siri tufayli faqat p-brom uchlamchi-butilbenzol hosil bo‘ladi. Bu modda yana bromlansa, yangi brom avvalgi bromning o-holatiga keladi:

Адабиётлар руйхати

1. ДЖ. Роберто, М. Касерио Издательство . Мир . Москва 1968.
2. Sobirov-“Organik kimyo”, Toshkent , “O’zbekiston” nashriyoti, 1999-yil
3. Rudzitis G. Ye, Feldman F. G- kimyo – 11 “ Organik kimyo o’rta matabining 11- sind uchun darslik” , Toshkent “O’qituvchi”- 1998 – yil
4. О.Я. Нейланд “Органическая химия” Москва изд- «Высшая школа» 1988-йил